

PRESS-RELIZ

Kosmik sohaning joriy holati va istiqboldagi rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil markazida

Joriy yilning 18-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekkosmos” agentligi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida kosmik soha oldiga qo‘yilgan vazifalar ijrosi holatini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan “Kosmik sohaning joriy holati va istiqboldagi rivojlantirish yo‘nalishlari” mavzusida davra suhbatini tashkil etildi.

Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, “O‘zbekkosmos” agentligi, Fanlar Akademiyasi mas’ullari, olimlar, oliy ta’lim muassasalari tadqiqotchilari, soha mutaxassislari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Davra suhbatini davomida so‘nggi yillarda O‘zbekistonda kosmik texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani, kosmik sohadagi qonunchilik bazasi mustahkamlanayotgani muhokama markazida bo‘ldi.

Bu borada olib borilayotgan izchil ishlar natijasida kosmik ma’lumotlardan foydalanish amaliyoti yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Xususan, Yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida qishloq xo‘jaligi yerlarini monitoring qilish, suv resurslarini boshqarish, yer kadastrini va shaharsozlik sohalarida aniq tahlillar olib borish imkoniyatlari kengaydi.

Amaliyotda sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari orqali suv omborlari holatini kuzatish, yer maydonlarining o‘zgarishini baholash hamda favqulodda holatlarni tezkor aniqlash tizimlari joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, kosmik sohani huquqiy jihatdan tartibga solish bo‘yicha ham qator muhim qadamlar tashlandi. So‘nggi yillarda sohani rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, institutsional baza mustahkamlandi. Bu esa kosmik texnologiyalarni joriy etishda tizimli yondashuvni ta’minlab, davlat organlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan so‘nggi Murojaatnomasida kosmik sohaga alohida e‘tibor qaratilishi ushbu yo‘nalishda yangi strategik bosqich boshlanganini anglatadi.

Xususan, Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan O‘zbekiston tarixida ilk bor sun‘iy yo‘ldosh uchirish hamda birinchi milliy kosmonavtni tayyorlash va uni fazoga uchirish strategik vazifa sifatida belgilandi.

Bu borada xalqaro hamkorlik istiqbollari, jumladan, yetakchi kosmik agentliklar bilan hamkorlik formatlari ko‘rib chiqilmoqda. Bu tashabbus nafaqat ramziy ahamiyatga ega. Milliy fazogir – bu yoshlar uchun kuchli motivatsiya, ilm-fanga qiziqishni oshirish, mamlakat imijini mustahkamlash omilidir.

Kosmonavtni fazoga uchirish aniq ilmiy dasturni amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Zero, bu yutuq mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirishi bilan birga ilmiy salohiyatni rivojlantirish, yangi loyiha va texnologik tashabbuslarning paydo bo‘lishi, yoshlarning fan va texnologiyalarga qiziqishi ortishiga xizmat qiladi.

Albatta, ushbu tashabbuslarni amalga oshirishda qonunchilik bazasining mustahkamligi muhim ahamiyat kasb etadi. Davra suhbatida davomida sohadagi amaliy natijalar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari, shuningdek, qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar muhokama qilindi.

Muhokamalar yakunida kosmik sohani yanada rivojlantirish, Prezident Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, sohada tizimli yondashuvni kuchaytirish hamda qonunchilik va institutsional asoslarni takomillashtirishga qaratilgan qator amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.